ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№6(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 284 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini ........ 10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘zini o‘zi anglashida muloqotning o‘rni ........ 14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa

Maktabgacha ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari ..... 17
Dilsora Shodmonova

Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях ........ 24
Истамова Нигора Азимжановна

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari........ 29
Saidova Nigora Olimovna, G‘ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi

Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo‘llari........ 32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich

Yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari........ 36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o‘g‘li

Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish........ 40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich

Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline ........ 44
Lola Mannobova

Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries ........ 48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o‘rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejalari ........ 51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi

Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko‘rinishlari ........ 55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi

O‘yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo‘lgan bolalar ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni ........ 59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich

Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari ..... 64
Alimova Gulrux Farhod qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o‘yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari ........ 70
Axtamova Mohinur O‘tkir qizi

Oilaviy zo‘ravonlikka uchragan ayollarni qo‘llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o‘rni ......... 74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To‘lqinova Muxlisaxon Jamshid qizi

O‘zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning “Yaldo kechasi” romani misolida) ........ 78
G‘aybulloyeva Parvina Samandar qizi

Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogenezda shakllanishi ........ 82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi

Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi ........ 87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna

Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari ............................ 91
Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli ............ 95
Jamolova Farida Fatillo qizi

Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) ........................................................ 98
Jumagulova Gulziya Madiyarovna

Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish ........................................................................... 103
Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish ..................... 107
Maqsuda Maxsudovna Murodova

O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari ........................................................................... 113
Maxbuba Axatova

Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari ................................................... 116
Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar ....................... 120
Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... 123
Niyozova Maftuna Normaxmat qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.................................................................................... 126
Norbo'tayeva Iroda Yunusovna

Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .................... 130
Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li

Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ................ 134
Nosirova Ra'no Xamidovna

Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni ................. 137
Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .................................................. 142
Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi

Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .................. 146
Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich

O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari............................................................................................................ 149
Qurdasheva Bonu Bexzod qizi

Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .................................... 153
Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi

Musiqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.......................... 157
Raximova Dilbar Rizakulovna

Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida.. 161
Raximova Maryam O'tkir qizi

Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni.. 173
Alimova Nasiba Adxamovna

Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari................................ 179
Kurbonova Kamola Ilxomovna

Nutq madaniyati va notiqlik san'ati ............................................................................................... 183
Mamadaliyeva Lola Shailyasovna

Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish ..................... 188
Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich

Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati...... 192
Samatov Javlonbek Abdukayumovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi ........ 195
Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna

Modern Teaching Methods in English Language Learning ........ 199
Sarvinoz Abdulhakimova

Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi ........ 202
Shahnoza Muhammadiyeva

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari ........ 205
Shopulatova Nasiba Umirovna

Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari ........ 208
Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid

Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ........ 211
Temirov Murodjon Anvarovich

The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students ........ 215
Toshmamatova Marjona Olimjon kizi

Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik ........ 220
Toshpo'latova Mahina Farxod qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari ........ 224
Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi

Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations ........ 228
Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi

Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications ........ 232
Veronica Khatamova

Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi ........ 236
Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi

Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida ........ 240
Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova

Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish ........ 246
Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi

The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation ........ 250
Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.

Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan ........ 254
Saytbekova Svetlana Saylaubaevna

Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish ........ 257
Xoldorova Mashxura G'ulomovna

Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari ........ 260
Xudaybergenova Zuxra Isakovna

Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari ........ 263
Yusupov Ma'mur Ma'rufovich

Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина ........ 269
Рахимова Шахзода Равшановна

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari ........ 273
Imamova Nasiba Xurramovna

Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .................. 276
**Xidirov Faxriddin Fozilovich**

Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .................. 280
**Рахмонова Нилуфар Уткир кизи**

# TALABALARDA BADIIY DID VA ESTETIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Temirov Murodjon Anvarovich
Tasviriy va amaliy san'at kafedrasi vazifasini bajaruvchi dotsenti
Andijon davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oliy ta'lim tizimida talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirish muammosi tasviriy san'atni idrok etish jarayoni bilan bog'liq holda ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda estetik, kognitiv va pedagogik omillar uyg'unligi asosida san'at asarini qabul qilish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, vizual idrok, kompozitsion fikrlash, rang sezgirligi hamda emotsional-intellektual reaksiyalar tizimi tahlil qilinadi. Maqola natijalari zamonaviy badiiy ta'lim metodikasini takomillashtirishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar:** tasviriy san'at, estetik tafakkur, badiiy did, pedagogik yondashuv, vizual idrok, kompozitsiya, rangshunoslik, badiiy madaniyat.

**Abstract:** This article scientifically and theoretically analyzes the problem of developing artistic taste and aesthetic thinking among university students in connection with the process of perceiving visual art. The study reveals the mechanisms of art perception based on the harmonious integration of aesthetic, cognitive, and pedagogical factors. In addition, visual perception, compositional thinking, color sensitivity, and the system of emotional-intellectual reactions are analyzed. The results of the article have theoretical and practical significance for improving modern methods of art education.

**Key words:** visual art, aesthetic thinking, artistic taste, pedagogical approach, visual perception, composition, color theory, artistic culture.

**Аннотация:** В данной статье научно-теоретически анализируется проблема формирования художественного вкуса и эстетического мышления у студентов высших учебных заведений в связи с процессом восприятия изобразительного искусства. В исследовании раскрываются механизмы восприятия произведений искусства на основе гармоничного взаимодействия эстетических, когнитивных и педагогических факторов. Также анализируются визуальное восприятие, композиционное мышление, чувствительность к цвету и система эмоционально-интеллектуальных реакций. Результаты статьи имеют теоретическое и практическое значение для совершенствования современной методики художественного образования.

**Ключевые слова:** изобразительное искусство, эстетическое мышление, художественный вкус, педагогический подход, визуальное восприятие, композиция, цветоведение, художественная культура.

## KIRISH

Jahon madaniy qadriyatlari tizimida badiiy did va estetik munosabatlarni o'rganishga bo'lgan e'tibor zamonaviy tasviriy san'at ta'limini rivojlantirishning dolzarb zarurati bilan izohlanadi. Birinchidan, insonning obyektiv borliq va ijodiy asarlarni idrok etish darajasining yetarli emasligi zamonaviy jamiyatning yuqori axborot va intellektual talablariga to'liq mos kelmaydi hamda tasviriy san'at asarlariga qo'yiladigan estetik mezonlarga yetarli darajada javob bermaydi.

Bugungi kunda bo'lajak o'qituvchi nostandart fikrlash qobiliyati, yuqori intellekt, estetik did, badiiy o'ziga xoslik hamda umuminsoniy va estetik qadriyatlarni anglash salohiyatiga ega bo'lishi zarur. Tasviriy san'at asarlarida mujassam bo'lgan kompozitsion yechimlar ijodiy asarning badiiy-estetik qiymatini belgilaydi va ushbu jarayon talabalarning ijodiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Bu esa inson yashash muhitining estetik jihatdan boyishiga hamda talabalarda badiiy did va estetik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Olingan bilimlar, idrok tajribasi va estetik obyektlardan zavqlanish hissi badiiy didni shakllantiradi hamda talabaning ijodiy faoliyatida muhim tafakkur mexanizmlarini rivojlantiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son[1]li "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola ma'lum darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasasida tahsil olish davri shaxsning har tomonlama rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayonda ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir".

Mazkur fikr talabalik davrida yoshlarning nafaqat bilim olishi, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topishi zarurligini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan, talabalik davri shaxsning ijtimoiylashuvi, mustaqil fikrlashi va hayotiy pozitsiyasining shakllanishida hal qiluvchi bosqich sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda insonning vizual axborotni qabul qilish tezligi ortib borayotgan bir paytda, uning chuqur estetik tahlil qilish qobiliyati, ya'ni badiiy idrok madaniyati ma'lum darajada susayib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, talabalarda san'at asarlarini faqat tashqi ko'rinish darajasida qabul qilish, uning ichki mazmuni, badiiy g'oyasi va kompozitsion yechimini to'liq anglamaslik kabi holatlarni yuzaga keltirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shu nuqtai nazardan, badiiy did va estetik tafakkur muammosi nafaqat san'atshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va falsafa fanlari kesishmasida o'rganiladigan murakkab ilmiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Sharq mutafakkirlari Ibn Sino va Forobiy asarlarida san'atning inson ruhiy kamolotidagi o'rni, estetik idrokning ma'naviy tarbiyadagi ahamiyati chuqur yoritilgan bo'lib, bu qarashlar bugungi zamonaviy pedagogik tizim uchun ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Badiiy did insonning san'atga estetik munosabatini ifodalaydi. U go'zallikni idrok etish, undan zavqlanish va xunuklikni rad etish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Yomon did esa estetik qadriyatlarga befarqlik bilan tavsiflanadi. Badiiy didi rivojlangan shaxs san'at asarini kitchdan farqlay oladi va uning estetik qiymatini to'g'ri baholaydi. Kitch esa estetik me'yorlardan og'ish, ijodiy asarning soddalashtirilishi va vulgarizatsiyasini ifodalaydi.

Badiiy did – bu murakkab ma'naviy tarbiya mahsulidir. Ilmiy adabiyotlarda didni san'at turlari bo'yicha tasniflash odatda qabul qilingan bo'lib, ular teatr, adabiy, musiqiy va boshqa yo'nalishlarga ajratiladi. Musiqiy did musiqaning o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi hamda shaxsning musiqiy madaniyati darajasini ifodalaydi. Bu musiqaga baholovchi munosabat, jumladan, musiqani estetik his qilish, uning mazmunini idrok etish, undan zavqlanish, qadrlash, atrofdagi hayot bilan bog'liq holda tushunish va eng yaxshi namunalarni tanlash qobiliyatidir. Did san'at asarining mavzusini, musiqiy g'oyasini, musiqa tabiatini va boshqa estetik jihatlarini anglash qobiliyatini ifodalaydi. Did tipik maxsus hissiy shaklda namoyon bo'lib, ma'lum bir san'at turining materialida mujassamlanadi. "Musiqada esa bu holat bastakorning yangi, g'ayrioddiy intonatsiyalarni odatda muhim va tez-tez qo'llaniladigan intonatsiyalar bilan uyg'unlashtira olish qobiliyatida ko'rinadi".

Rivojlangan badiiy did quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- chinakam san'at namunalariga qiziqish;
- asarning semantik mazmunini anglash;
- haqiqiy va soxta asarlarni farqlash qobiliyati.

Tasviriy san'at badiiy didni rivojlantirishning eng samarali vositalaridan biridir. Talabalarni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish ularning estetik idrokini shakllantiradi va san'atga qiziqishini oshiradi. Portret janri inson psixologiyasini, maishiy janr ijtimoiy munosabatlarni, manzara janri esa tabiat estetikasini anglashga xizmat qiladi. Talabalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish estetik tarbiyaning muhim omillaridan biridir.

Badiiy ta'lim yo'nalishlari – tasviriy san'at, dizayn, kompyuter grafikasi – bu jarayonni boyitadi.

Qobiliyatlar – bu o'ziga xos ichki "zaryad", shaxsning salohiyati bo'lib, u ongli ravishda ma'lum bir faoliyatda va ayni paytda estetik talablarga javob beradigan eng yaxshi usullar hamda texnikalarda namoyon bo'lishi kerak.

Badiiy did ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyatdagi madaniy me'yorlar asosida shakllanadi va rivojlanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantirish jarayonini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, san'atshunoslik tahlili hamda psixologik interpretatsiya usullari tashkil etadi. Shu sababli, talabalarda

1 https://www.lex.uz/uz/docs/-7611797

badiiy didni shakllantirish jarayoni ularning estetik tafakkurini rivojlantirish, vizual madaniyatini boyitish va ijodiy fikrlash qobiliyatini kuchaytirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan kompleks pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Tizimli yondashuv doirasida badiiy didni shakllantirish jarayoni alohida komponentlar yig'indisi emas, balki o'zaro uzviy bog'langan pedagogik tizim sifatida tahlil qilindi. Ushbu tizimda idrok, emotsiya, tafakkur va estetik baholash jarayonlari yaxlit struktura sifatida o'rganildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali milliy va xalqaro pedagogik tajribalar, tasviriy san'atni o'qitish metodikalari hamda estetik tarbiya modellari o'zaro solishtirildi.

Ayniqsa, an'anaviy akademik rasm ta'limi bilan zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi. San'atshunoslik tahlili asosida talabalarning tasviriy san'at asarlarini idrok etish jarayoni kompozitsiya, rang, shakl, ritm va plastika nuqtayi nazaridan o'rganildi. Bu jarayonda san'at asarining estetik va badiiy qiymatini aniqlash mexanizmlari tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuv jarayonida esa talabalarning real san'at asarlari bilan ishlash faoliyati, ularning estetik reaksiyalari hamda tahlil qilish ko'nikmalari bevosita kuzatildi va qayd etildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda badiiy did va estetik tafakkurning shakllanishi murakkab, ko'p bosqichli psixologik-pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon bir necha funksional bosqichlarda amalga oshadi.

*Birinchi bosqich* – **sezgi-idrok bosqichi** bo'lib, unda talaba san'at asarini vizual darajada qabul qiladi. Bu bosqichda rang, shakl, chiziq va kompozitsion tuzilma asosiy ahamiyat kasb etadi.

*Ikkinchi bosqich* – **emotsional bosqich** bo'lib, unda san'at asari talabaning ichki hissiy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda estetik zavq, hayrat, befarqlik yoki inkor kabi emotsional reaksiyalar shakllanadi.

*Uchinchi bosqich* – **kognitiv-analitik bosqich** bo'lib, bunda talaba asarning mazmuni, g'oyasi va badiiy strukturasini tahlil qiladi. Bu bosqichda mantiqiy va estetik tafakkur uyg'unlashadi.

*To'rtinchi bosqich* – **aksiologik baholash bosqichi** bo'lib, unda san'at asarining estetik qiymati aniqlanadi va shaxsiy estetik qarash shakllanadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, badiiy didning shakllanishi quyidagi omillar bilan bevosita bog'liq:

- real san'at asarlari bilan doimiy muloqot;
- vizual va estetik savodxonlikning rivojlanishi;
- kompozitsion tahlil ko'nikmalarining shakllanishi;
- mustaqil estetik baholash qobiliyatining rivojlanishi.

Shuningdek, talabalarda haqiqiy san'at va ommaviy "kitch" mahsulotlarini farqlash darajasi hali yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi. Estetik tafakkur insonning ruhiy-intellektual rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi murakkab fenomen bo'lib, u nafaqat go'zallikni qabul qilish, balki uni anglash, talqin qilish va qayta yaratish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Ibn Sino san'atning inson ruhini tarbiyalash va ma'naviyatini oshirishdagi o'rni haqida quyidagicha fikr bildirgan: "San'at inson ruhining rivojlanishi va uning ma'naviy dunyosining shakllanishidagi muhim vositadir". Ushbu fikr san'atning nafaqat tashqi ko'rinishni aks ettirishi, balki uning chuqur ma'no va go'zallik jihatlarini anglashga yordam berishini ta'kidlaydi. Badiiy did va estetik tafakkur nafaqat san'at asarlarini tushunish, balki ular bilan o'zaro aloqada bo'lish hamda estetik idrokni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Al-Farobiy esa san'atning inson ma'naviy dunyosini shakllantirishdagi o'rnini quyidagicha ifodalagan: "Badiiy tafakkur va san'at insonning ruhiy holatini o'zgartiradi hamda uning ichki va tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatini yangi shaklda tashkil etadi". Ushbu fikr estetik tafakkur shaxsni nafaqat tashqi go'zallikni qabul qilishga, balki uni yangicha talqin qilish, yaratish va badiiy idrokni boyitishga yo'naltirishini ko'rsatadi. Bugungi pedagogik amaliyotda bir qator muammolar kuzatiladi: talabalarning san'at asarlarini yuzaki idrok etishi, estetik tahlil ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, vizual madaniyatning fragmentar xarakter kasb etishi hamda estetik baholashdagi subyektivlikning ustunligi. Shu bois zamonaviy ta'lim jarayonida integrativ, interaktiv va refleksiv yondashuvlarga asoslangan metodlarni keng joriy etish zarur. Mazkur yondashuvlar talabalarning mustaqil estetik fikrlashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantirish murakkab, ko'p qatlamli hamda tizimli pedagogik jarayon bo'lib, u idrok, emotsiya, tafakkur va estetik baholash omillarining uzviy integratsiyasiga asoslanadi. Badiiy did shaxsning nafaqat san'atni anglash qobiliyatini, balki uning estetik dunyoqarashi, madaniy iden-

tifikatsiyasi va ijodiy salohiyatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaraganda, talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni rivojlantirish shaxsning ma'naviy, intellektual va ijodiy kamoloti bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'p bosqichli pedagogik jarayon hisoblanadi.

Talabalarning badiiy did va estetik tafakkurini rivojlantirish bo'lajak mutaxassislarning o'z kasbiy faoliyatida madaniyatning turli ijtimoiy-kasbiy funksiyalarini samarali bajarishiga imkon beradigan aniq ijtimoiy-kasbiy yo'nalganlikni shakllantirishni, talabalarning maxsus ijtimoiy-kasbiy guruh vakillari sifatida shakllanishi va rivojlanishining individual hamda psixologik xususiyatlarini hisobga olishni, shuningdek, talabalarda badiiy did va estetik tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirishning turli shakl va mexanizmlarini belgilovchi ijtimoiylashuv jarayonlari parametrlarini aniqlash va tahlil qilishni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, estetik tarbiya oliy ta'lim tizimida alohida strategik yo'nalish sifatida rivojlantirilishi lozim.

Mazkur jarayon talabalarda estetik madaniyatni shakllantiradi, ijodiy tafakkurni rivojlantiradi, san'atni chuqur anglash kompetensiyasini hosil qiladi hamda vizual savodxonlik darajasini oshiradi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at va estetik tarbiyaga oid fanlar integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida vizual idrok va badiiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish, talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi amaliy loyihalar va ko'rgazmalar sonini oshirish, raqamli ta'lim muhiti orqali milliy va jahon san'ati namunalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda estetik tarbiya jarayonida milliy madaniy qadriyatlar va badiiy merosdan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, badiiy didni rivojlantirish shaxsni estetik jihatdan barkamol, ijodiy fikrlovchi va madaniy jihatdan yetuk mutaxassis sifatida shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-sonli "Tasviriy va amaliy san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. www.lex.uz/uz/docs/-7611797
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 3-bet.
3. Ibn Sino. Donishnoma (Kitab ash-Shifo'). – Toshkent: Fan, 1980.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil shahar ahlining fikrlari haqida kitob. – Toshkent: Fan, 1993. – 52-bet.
5. Xakimov A.A., Xayitboboyeva X.P. Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "DiMal" nashriyoti, 2024. – 148 bet.
6. Никитина-Лабковская Г.С. (сост.). Эстетическая культура и эстетическое воспитание. Книга для учителя. – Москва: Просвещение, 2003. – 225 с.
7. Umarov E., Karimov R. Estetika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Cho'lpon nashriyoti.
8. Скатерщиков В.К. Художественная культура: понятия и термины. – Москва, 2005.
9. Панкевич Г.И. Музыка и идеология. – Москва, 2011.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

**Mas’ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №6(1)**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali 26.09.2023-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.